

UO‘K: 636:576.858:616.9

RESPUBLIKANING AYRIM VILOYATLARINI CHORVACHILIK XO‘JALIKLARIDA VIRUSLI DIAREYA KASALLIGINI TARQALISHI

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti mustaqil izlanuvchisi*

U.X.Ruzikulova

dotsent, v.f.d

Z.J.Shapulatova

Annotatsiya. Ushbu maqolada Jizzax, Andijon, Farg‘ona va Samarqand viloyatlariga qarashli 13 ta har xil fermer xo‘jaliklaridan jami 865 bosh turli yoshdagi qoramollardan olingan qon namunalari BGAR tekshirilganda 604 boshida ijobiy natija olinib, diareya virusiga qarshi antitelolar mavjudligi aniqlangan. Bu esa 69,8% ni tashkil etgan. Hayvonlarning zararlanish darajasi 45,9 dan 87,5 % ni, diareya virusiga qarshi antitelolar titri 3,7-5,0 log₂ ekanligi haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Diareya, virus, bo‘g‘oz, BGAR, kon'yunktivit, ekssudat, epizootiya, rinit, antitelo, titr.

Mavzuning dolzarbligi. Yirik shoxli hayvonlar infeksiyon kasalliklari orasida virusli diareya – eng keng tarqalgan kasalliklardan biri bo‘lib, buzoqlarning virusli kasalliklari etiologiyasida diareya virusi alohida o‘rin tutadi. Kasallikning xarakterli belgilari: isitma, ovqat hazm qilish yo‘llarining shilliq qavatining eroziv va yarali yallig‘lanishi, diareya (diareya), rinit, kon'yunktivit. Bo‘g‘oz sigirlarda homila tashlash kuzatilishi mumkin. Kasallik qo‘zgatuvchining asosiy manbai kasal va kasaldan tuzalgan hayvonlar bo‘lib, virus siydik, najas, so‘lak, yallig‘lanish o‘choqlaridan ekssudat bilan tashqi muhitga tarqaladi. Kasallik epizootiya shaklida davom etadi, kasallanish podadagi hayvonlarning 10% dan 100% gacha, o‘lim darajasi 10-90% ni tashkil qiladi. Diagnostika epizootologik ma‘lumotlar, klinik belgilar va laboratoriya natijalari asosida qo‘yiladi. Kasallikdan keladigan iqtisodiy zararining kattaligi sababli ushbu kasallikning tarqalishini o‘rganish va kasallikka diagnostika qo‘yish muhim hisoblanadi.

Material va metodlar. Respublikaning ayrim viloyatlarida qoramollar virusli diareya kasalligini tarqalishi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarimizni respublikamizning Jizzax, Andijon, Farg‘ona va Samarqand viloyatlariga qarashli 13 ta har xil fermer xo‘jaliklarida olib boridi. Xo‘jaliklardan jami 865



bosh turli yoshdagi qoramollardan olingan qon namunalari Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, choravchilik va biotexnologiyalar universiteti Mikrobiologiya, virusologiya immunologiya kafedrasi laboratoriyasida BGAR tekshirildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Tadqiqot natijalari 1-jadvalda berilgan. Jami 865 bosh turli yoshdagi qoramollardan olingan qon zardoblarini tekshirganimizda 604 boshida ijobiy natija olinib diareya virusiga qarshi antitelolar mavjudligi aniqlandi. Bu esa 69,8% ni tashkil etdi. Hayvonlarning zararlanish darajasi 45,9 dan 87,5 % tashkil etdi. Diareya virusiga qarshi antitelolar titri 3,7-5,0 log₂ ekanligini aniqladik.

Respublikaning ayrim viloyatlari chorvachilik xo'jaliklaridagi qoramollarning qon zardobini virusli diareyaga BGAR usulida tekshirish natijalari

1-jadval

/r	Xoʻjaliklar nomi	Teshirilgan hayvon bosh soni	Ijob iy natija	%	Antitelo titri Log ₂
	Jizzax viloyati Gʻallarol tumani				
	“Roxat”	40	27	67,5	3,8-5,9
	“Shoʻx shalolalar”	61	28	45,9	3,2-4,6
		101	55	54,4	3,5-5,25
	Andijon viloyati Asaka tumani				
	“Turgʻunboy Shokirov”	72	63	87,5	4,3-5,6
	“Navoiy naslli chorva mollari”	84	75	89,2	4,3-6,2
	Oltinkoʻl tumani “Baxt imkon rivoji”	147	78	53,0	3,8-5,0
		303	216	71,3	4,1-5,6
	Fargʻona viloyati				
	“A.Rustamov”	81	69	85,1	3,2-5,4



	Samarqand viloyati				
7	Kattaqo'rg'on tumani "Farovon Gold chorvasi"	72	45	6 2,5	4,32- 5,32
8	Ishtixon tumani "Qaxramon"	57	41	7 1,9	3,32-4,3
9	Oqdaryo tumani "Kelajak"	64	39	6 0,9	4,3-5,32
0	Payariq tumani "Xushvaqt Abdullaev"	71	59	8 3,0	3,2-4,6
1	Ishtixon tumani "Dutorchi"	56	45	8 0,3	3,32- 5,32
2	Nurobod tumani "Nurli musaffo diyor"	15	10	6 6,6	2,8-4,6
3	Oqdaryo tumani "Siyob Shavkat Orzu"	45	25	5 5,5	3,8-5,8
		380	264	6 9,5	3,6-5,0
	Jami:	865	604	6 9,8	3,7-5,0

Jizzax viloyati G'allarol tumani "Roxat", "Sho'x shalolalar" fermer xo'jaliklarida mos ravishda tekshirilgan qoramollarning 67,5 – 45,9%, o'rtacha 54,4% diareya virusi bilan zararlanganligi aniqlandi. Antitelolar titri 3,5-5,25 $\log_2$ ni tashkil etdi.

Andijon viloyatida "Turg'unboy Shokirov", "Navoiy naslli chorva mollari", "Baxt imkon rivoji" fermer xo'jaliklarida 53% dan 89,2% gacha hayvonlarda diareya virusiga qarshi 4,1 $\log_2$ dan -5,6 $\log_2$ gacha titrda antitelolar mavjudligini aniqladik.

Farg'ona viloyati "A.Rustamov" fermer xo'jaligida bu ko'rsatkich 85,1% ni tashkil etib, antitelolar titri 3,2-5,4 $\log_2$ dan iborat bo'ldi.

Samarqand viloyatining 7 ta fermer xo'jaliklarida 55,5 dan 83,0% gacha qoramollarda 2,2 $\log_2$ dan 5,8 $\log_2$ gacha titrlarda diareya virusiga qarshi antitelolar aniqlandi. Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatdi-ki, Payariq tumani "Xushvaqt Abdullayev", Ishtixon tumani "Dutorchi" fermer xo'jaliklarida ko'rsatkichlar yuqori bo'lib, 83,0 va 80,3% qoramollarda diareya virusiga qarshi antitelolar aniqlandi. Oqdaryo tumani "Siyob Shavkat Orzu", "Kelajak",



Kattaqo'rg'on tumani “Farovon Gold chorvasi”, Nurobod tumani “Nurli musaffo diyor”, Ishtixon tumani “Qaxramon” fermer xo'jaliklarda bu ko'rsatkichlar nisbatan kamroq bo'lib, tekshirilgan hayvonlarning 55,5% dan 71,9 % gachasida diareya virusiga qarshi antitelolar aniqlandi.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilganimizda o'rtacha Jizzax viloyatida 54,4% (3,5-5,25 log₂), Andijon viloyatida 71,3% (4,1-5,6 log₂), Farg'ona viloyatida 85,1% (3,2-5,4 log₂), Samarqand viloyatida 69,5% (3,6-5,0 log₂) tekshirilgan qoramollarda virusli diareya aniqlandi.

Xulosa. Shunday qilib, tadqiqot O'zbekistonning Jizzax, Andijon, Farg'ona va Samarqand viloyatlaridagi 13 ta fermer xo'jaliklarida olib borildi va serologik tekshiruvda (BGAR) 865 bosh qoramollarning 45,9% dan 87,5% gacha virusga qarshi antitelolar aniqlandi. BGAR usulida tekshirganda qoramollar qon zardobida virusli diareya kasalligi qo'zg'atuvchisiga qarshi antitelolarni mavjudligi diareya virusi bilan ularning zararlanganligini va tabiatda keng tarqalganligini tasdiqlaydi. Bunda qoramollarni tabiiy rezistentligini oshirish, to'g'ri ratsion asosida boqish, zoogigienik talablar darajasida saqlash, kasal va klinik sog'lom qoramollarni ajratish hamda kasallikka qarshi kurash choralarini qo'llash maqsadga muvofiq ekanligi aniqlandi. Tekshirilgan qoramollar diareya virusi bilan zararlangan va bu virus ushbu xo'jaliklarda mavjud bo'lib, kasallikning maxsus oldini olish chora-tadbirlari o'tkazilmasa qulay sharoitlar paydo bo'lganda qoramollar orasida yalpi kasallanish holatlari kuzatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shapulatova Z.J, Ruzikulova U.X. “Virusli diareya kasalligining klinik belgilari va laboratoriya diagnostikasi”. “Veterinariya meditsinasi” ilmiy ommabop jurnali. Maxsus son. №5. Samarqand – Toshkent, 2023. - B. 303-304.

2. Shapulatova Z.J, Ruzikulova U.X. “Qoramollar virusli diareya kasalligining epizootologiyasi va diagnostikasi”. Veterinariya meditsinasi № 9 2022 yil 11-13.

3. А.Г. Глотов и др. Выделение и характеристика изолятов вируса вирусной диареи -болезни слизистых крупного рогатого скота / // Вопросы Вирусологии. 2006. -№1. - С. 41 - 45.

4. Глотов, А.Г, Глотова Т.И. Респираторные болезни телят вирусно-бактериальной этиологии Рос. акад. с.-х. наук. Сиб. отд-ние, ГНУ ИЭВСиДВ. Новосибирск: Агрос, 2008. - 258 с.

5. Нерадзе Т.В., Халонен П. “Иммунологическая диагностика вирусных инфекций”. - М : Медицина, 1985.- 302 с.

